ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Резюме. В данной статье проанализировано использование заимствованных из персидского языка аффиксов, обозначающих место, в поэме Абдурахмона Джомий «Юсуф и Зулейха». В работе исследована структура словообразования, включая основу слова и словообразующий суффикс. Например, слова *qabulxona*, *taxtgoh*, *gulzor*, *bog‘iston*, *gulsiton* формируются через сочетание основы и суффикса и выражают место, пространство и художественный образ. Персидские аффиксы -goh, -iston, -zor и -xona проникли в узбекский язык благодаря историческим культурным и литературным контактам. Эти единицы создают стилистическое разнообразие текста поэмы и играют важную роль в обогащении лексической системы узбекского языка. Результаты исследования показывают, что эти аффиксы в современном узбекском языке закрепились как исторически сформированные лексические единицы и используются преимущественно в составе готовых слов, а не для образования новых.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING «DEVONY LUG‘OTI-T-TURK» ASARIDA KELTIRILGAN MAQOLLARDAGI SO‘ZLARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

To‘ychiyeva Zulayxo Hamroqo‘lovna,
Guliston davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Yerjanova Saule Baymurzayevna,
Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti,
filologiya fanlari doktori

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. «Maqol» atamasi arabcha ***qavlun – gapirmoq, aytmoq***, tojik tilida ***zarbulmasal***, rus tilida ***poslovitsa*** shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida maqollar alohida o‘rin tutadi, chunki ular til boyligi, tarixiy qatlamlilik va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga ular o‘z tabiatiga ko‘ra, qisqa, esda qolarli iboralar bo‘lib, ular umumiy haqiqatlarni yoki oddiy aql-idrok va tajribaga asoslangan maslahatlarni ifodalaydi.

«Devonu lig‘oti-t-turk» asaridagi maqollar butun turkiy xalqlarning ma’naviy-madaniy merosi ekanligini e’tiborga olgan holda bu mavzuni chuqurroq tadqiq etish lozim. O‘quvchining ma’naviy boyliklarini yanada ko‘paytirish, vatanimiz va dunyo xalqlari badiiy ijodining eng yaxshi namunalari asosida yosh avlodni g‘oyaviy-estetik ruhda tarbiyalashda maqollarning roli va ahamiyati juda katta.

Mahmud Koshg‘ariyning ijodiy merosi O‘zbekistonda ham keng o‘rganib kelinmoqda. Uning hayoti, adabiy, ilmiy faoliyati qator monografiyalar, ilmiy maqolalarda yoritilgan. Jahon tilshunosligida A.M.Shcherbak, N.A.Baskakov, turk tilshunosligida B.Atalay, A.Najip kabi olimlar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarini o‘rganganlar.

Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ijodi o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, arab tilining bilimdoni, yirik tilshunos olim prof. S.Mutallibov «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridagi ko‘pma’noli so‘zlar haqida «Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk» asarida «Omonim va

polisemiya so‘zlar tarixidan» mavzusida fikr yuritgan. Shuningdek, 2002-yil noyabr oyida Samarqandda «Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asari va uning turkiy xalqlar madaniyatu hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni» mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda olimning umuman tilshunoslik bo‘yicha nazariy qarashlari, turkiy tillar madaniyatida tutgan o‘rni, turkiy tillarning grammatik masalalari to‘g‘risidagi fikrlari, arel lingvistika masalalariga qarashlari bilan birga olimning turkiy tillar leksikologiyasi masalalari bo‘yicha kuzatishlari haqida ma’ruzalar o‘qildi[1]. Jumladan, S.Boymirzayeva «Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridagi ayrim ko‘p ma’noli so‘zlar haqida», B.O‘roqov «Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» da so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash» mavzusida ma’ruza qildi va bularning hammasi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridagi polisemantik so‘zlarni maxsus monografik usulda tahlil etishni bugungi o‘zbek tilshunosligi oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan masala sifatida qo‘yadi[2].

Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilshunos olimlaridan yana biri X.Doniyorov bo‘lib, «Eski o‘zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari»[3] asosida «Devonu lug‘oti-t-turk» dagi ma’lumotlardan foydalanib turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining qabila va urug‘larga bo‘linishi hamda ularning tillariga xos materiallar, ishonchli ma’lumotlar, fonetika, leksika, morfologiyaga oid tadqiqotlarni olib borgan. Shuningdek, olim «Qipchoq dialektlarining leksikasi»[4] asarida «Devonu lug‘oti-t-turk» asarining fonetikasiga oid misollar keltiradi. Tilshunos olim B.To‘ychiboyev ham «O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi»[5] asarida Mahmud Koshg‘ariyning fonetikaga oid qarashlarini misollar asosida isbotlaydi. A.Qayumov, M.Is’hoqov, A.Otaxo‘jayev, Q.Sodiqovlarning «Qadimgi yozma yodgorliklar» kitobida «Devon»da turkcha so‘zlashadigan xalqlar haqida aytilgan ma’lumotlarni keltirgan. Z.Hamidov, Sh.Abdullayevalarning «Eski o‘zbek tili va yozuvi» kitobida Mahmud Koshg‘ariyning turkiy xalqlarning muchal xususidagi qarashlarini keltirgan ma’lumotlari aks ettirilgan. Ayni paytda yirik tilshunos olimlarimizdan Q.Sodiqov, H.Boltaboyev va H.Dadaboyevlar sermahsul faoliyat olib borishmoqda.

Xullas, Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, qiyosiy fonologiyasi, qiyosiy leksikologiyasi, so‘z yasalishi hamda qiyosiy morfologiyasi haqida batafsil ma’lumot bergan, lug‘at tuzishning namunali mezonini yaratgan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning dailektologiya, lingvogeografiya kabi tilshunoslik yo‘nalishlarining asoschisi bo‘lgan buyuk tilshunos olimdir[6].

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘oti-t- turk» asarida turkiy xalqlarning maqollarini juda keng tavsiflagan. «…Bu asar yolg‘iz o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni, Yuqori Chindan tortib Movorounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan urug‘, qabila, xalqlar, ularning tillari, o‘sha davr xalq og‘zaki ijodiy maqollari to‘g‘risida ham ma’lumot beruvchi noyob filologik asardir. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og‘zaki ijodining butun yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ayniqsa, xalq maqollarini o‘rganuvchi ilmiy fikrlarni sharhlashda xalq maqollariga keng e’tibor bergan, birinchi marta xalq maqollarini yig‘uvchi asar hamdir. Bu haqida M.Koshg‘ariyning o‘zi shunday yozadi: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim…»[7]. Tilshunoslikning boshqa sohalari kabi paremiologik dastlabki tadqiqotni ham Mahmud Koshg‘ariy boshlab bergan desak xato bo‘lmaydi. «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridan turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan ortiq she’riy parchalar ham o‘rin olgan. She’riy parchalarning juda ko‘p qismi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan to‘rtliklardan iborat.

Darhaqiqat, o‘sha davr xalq maqollarini maxsus o‘rganishning bugungi kun uchun amaliy ahamiyati ham beqiyosdir. Davrlar o‘tishi bilan maqollar sayqal topadi, mazmunan chuqurlashadi. Ayrim hollarda buning aksi ham bo‘ladi. Ya’ni eshitgan maqolini qo‘llovchining hikmatdagi so‘zlar yoki unda aytmoqchi bo‘lgan asosiy fikrni yaxshi tushunmaganligi sababli maqolda o‘zining saviyasiga mos boshqa so‘zlarni qo‘shib yuborishi, uning shu holda tarqalishiga sababchi bo‘lish hollari ham uchraydi. Ba’zan bunday vaziyat maqoldan atay o‘z manfaati yo‘lida

[1] “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyatu hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” xalqaro konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2002-yil, 25-26-noyabr.

[2] “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyatu hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” xalqaro konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2002-yil, 25-26-noyabr.

[3] Doniyorov X. Eski adabiy tili va qipchoq dialektlari. – Toshkent: Fan, 1976.

[4] Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. –Toshkent: Fan, 1999.

[5] To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. – Guliston: Ziyo, 2002.

[6] Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

[7] Abdullayeva N., Muhamadova G. Maqollarning lingvistik tadqiqi xususida. // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya [Jild: 03 Nashr: 5 (2024)] ISSN: 2992-8915.

foydalanishga urinish tufayli ham yuz beradi[1]. Shu xil omillar bois «Devonu lug'oti-t-turk» dagi maqollarning ayrim so'zlari u yoki bu darajada o'zgarishga yo'liqqan variantlarini ham uchratish mumkin. Masalan, «Devon»da Бїр туjїн башї ағрїса, қамуғ туjїн башї ағрїмас – *bir g'ari din kattasining boshi og'risa, hammasining boshi og'rimaydi*[2].

Qadimgi turkiy tildagi so'zlar maqollarning semantik-stilistik mundarijasining muhim tarkibiy qismidir. Ularda boshqa tillardan kirgan so'zlar deyarli ushramaydi. Asarda keltirilgan maqollarning lug'aviy tarkibida hozirgi kun uchun tushunarsiz bo'lgan ayrim so'zlar bilan birga, hozirgi tilimizda ham qo'llanayotgan ba'zi so'zlar kuzatiladi. Bundan tashqari asardagi maqollarda asosan, turkiy tillarga oid so'zlar ishlatilganligi kuzatiladi. Maqollar tarkibida turkiy tillarga oid bo'lgan ot, sifat, ravish, fe'l turkumlariga kiruvchi so'zlar ko'proq uchraydi. Ya'ni maqollar tarkibida arab va fors-tojik tillariga oid so'zlar deyarli qo'llanilmagan.

Real mazmunli maqol voqelikka nisbatan real, hayotiy mazmunga ega bo'lib, oddiy gap – so'zdan deyarli farqlanmaydi, ammo keng hayotiy voqea- hodisalarni qamrab oladi. Masalan, Түзün бїр*lä urïsh, utun, utun bïrlä tәpishmä – Yumshoq odam bilan olish, u sendan yengilishi mumkin, qattiq yuzli odam bilan olishma, u seni yengadi.* (1 t. 392-b.). Ushbu maqolda yumshoq fe'lli inson bilan urishib g'olib chiqish, qattiq fe'lli inson bilan urishib yengilish mumkinligi va ularning tabiatiga xos sifatlar bildirilgan. Bu maqol o'zbek xalq maqollari orasidagi «*Daraxtning yumshog'ini qurt yeydi*». (O'zbek xalq maqollari, 382-b.) maqoliga o'xshashdir. Bu maqolda *yumshoq* va *qattiq* so'zlari sifat so'z turkumiga kiradi. Ular maqolda insonning fe'l-atvorini bildirib kelgan; qattiq yuzli odam birikmasida ham insonning xarakteri, tabiatiga xos xislat ifodalangan.

Öküz *ażaqi bo'lguncha, buzaǵu bashi bolsa jik – ho'kizning oyog'i bo'lgincha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq.* Bu maqol «Mustaqillik bo'ysunishdan yaxshiroq» degan ma'noda qo'llanadi va bu maqol

Arpaning doni bo'lguncha
Bug'doyning somoni bo'l

(O'zbek xalq maqollari, 350-bet)

Maqoldagi Öküz *ażaqi, buzaǵu, bashi* kabi so'zlar ot so'z turkumiga kirsa, *bo'lgincha, bolsa* so'zlari fe'l, *jik* so'zi sifat so'z turkumiga kirishi ma'lum, albatta. Ażaqi (oyog'i) va boshi so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. Ażaqi – oxiri, bashi – boshi ma'nosida kelgan bo'lib, katta narsaning oxirida bo'lgandan kichik narsaning boshida bo'lgan yaxshiligi, ya'ni mustaqillik tobelikdan afzalligini anglatadi.

Бәш әрәңäк түз әрмäс – «besh qo'l (barmoq) barobar emas». Shunga o'xshash, odamlar ham bir-birlaridan farq qiladilar. (1 t. 143-b). Бәш – son, әрәңäк – ot, түз – sifat, әрмäс – fe'l so'z turkumiga mansub bo'lib, бәш әрәңäк (besh barmoq) – birikmasi ko'chma ma'noda kelgan. Bu yerda sinekdoxa vositasida besh barmoqning barobar emasligi orqali insonlarning ham bir-biriga o'xshamasligi aks ettirilib, ramziy ma'no anglashiladi. Demak, oddiy gap – tasvirga o'xshash maqollarda ifodalangan. Hayotiy lavha aslida yashirin denotatning belgi-xususiyatini obrazli ifodalovchi tasviriy vositabo'lib, ularda so'zlar ham oddiy so'z emas, balki obrazli ifodaning bir komponentidir.

Бор болмажїп с*i*рка болма – *sharob bo'lishdan oldin sirka bo'lma.* Bu maqol o'zini qarilarga o'xshatadigan yoshlarga nisbatan qo'llanadi. (III t. 13-b). Bu noreal mazmunli ramziy maqol murakkab obrazli tuzilma bo'lib, unda aniq ma'noli component ham mavjud. So'zlarning hammasi ko'chma ma'noda ifodalangan bo'lib, insonning xarakter-xususiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Xususan, Бор болмажїп – *sharob bo'lmasdan,* ya'ni o'rta yoshga yetmasdan oldin с*i*рка болма*,* qarilarga o'xshama degan mazmun ifodalanmoqda.

Ma'lumki, inson hech qachon sharob yoki sirka bo'lmaydi, ammo ko'chma ma'noda qo'llangan maqollarda bu kabi holatlar vositasida Hayotiy hodisalar aks ettiriladi.

«Devon» dagi maqollarda belgi-xususiyat (keng ma'noda) bildiruvchi so'zlarning qo'llanilishi, semantik-stilistik xususiyatlari borasida gap ketar ekan, belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar maqollarda:

a) yashirin denotat belgi-xususiyat ifodasi bo'lib kelgan: Қїлну б*il*сä қїзїл к*i*зäр, ўарану б*il*сä *j*ашїл кїзар – *Xotinlar eri bilan suhbat istagnda qizil ipakli kiyadi, yalinish va xushomadgo'ylik vaqtida yashil kiyim kiyadi. Xotinlar haqidagi bu maqol maqsadga erishish, yoqimli muomalada bo'lishni eslatish maqsadida ishlatiladi.* (1 t. 375-b).

b) belgi-xususiyat maqollarda real ifodalangan predmetga bog'langan holdagi yoki so'zning ko'chma ma'nosi asosidagi ifodasi bo'lib kelgani: Сөкўт сўлїңä қаżїң қасїңа – тол дарахтидаги ҳўллик ва майинлик толнинг ўзига ярашиқ, қайин дарахтининг қаттиқлиги унинг ўзига муносибдир. Бу мақол ҳар нарса ўз аслига бориши тўғрисида қўлланади. (1t. 338-b).

d) sof uslubiy maqollarda qo'llanadi: Қајнар өкўз кэчіксіз болмас – tez oqar katta suv kechiksiz (ko'priksiz) bo'lmaydi. Bu maqol biron ishda ikkilanib,

[1] To'ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2002.
[2] Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otit turk" 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S. – T., 1960. 272-b.

cho‘chib turgan kishiga tasalli berish uchun qo‘llanadi. (1 t. 371-b).

Oxirgi holat nisbatan kam kuzatiladi. Umuman olganda belgi xususiyat bildiruvchi so‘zlar qanday usulda qo‘llanmasin, keng hayotiy haqiqatning majoziy, ko‘chma ma’nodagi ifodasi hisoblanadi.

Bundan tashqari «Devon» dagi maqollarda o‘rin-joy nomlarining o‘ziga xos semantik-stilistik xususiyatlari ifodalangan o‘rinlar ham bor.

1. O‘rin-joy nomlari konkret joyni aniq hayotiy hodisalar bilan ifodalaydi:

Қуш *jaw*узї сағїзған,
*Jїr*ач *jaw*узї азған,
Jәр jawузї қазған,
Будун jawузї барсаган.

Qushning eng yaramasi, yovuzi zag‘izg‘on, daraxtning eng yaramasi azg‘on daraxti, bu shunday daraxtki, uning oq va sariq guli, zirakka o‘xshash osilib turadigan qizil mevasi bo‘ladi. Bizda bu daraxtni tokzorlarning etagiga ekiladi. Chunki u o‘tinlikka yaramaydi, yoqilganda olovda parchalanib sachraydi, uydagi kiyim va boshqa narsalarni kuydiradi. Yerlarning yaramasi o‘nqir-cho‘nqir yer. Chunki o‘tov qurishga ham, ekin ekishga ham yaramaydi. Odmning yaramasi Barsag‘onda turuvchilardir, chunki ular yomon qiliqli, baxil kishilardir. (1 t. 412-b). Bu maqolda *Barsag‘onda turuvchilar* haqida so‘z borar ekan, ularning tabiatiga xos jihatlar real aks ettirilgan.

2. O‘rin-joy nomlari ma’lum bir hodisani ko‘rsatib berishda, obrazli ifodalangan ham mavjudki, unda joy nomi ma’lum bir uslubiy maqsadni ko‘zlaydi. Masalan, Қузда қар ѳксўмäс, қойда *jaғ* ѳксўмäс – *Quz tog‘ida qor kamaymaydi, shuningdek, qo‘yda yog‘kamaymaydi.* (1 t. 315-b).

Demak, o‘rin-joy nomlarining semantik-stilistik xususiyatlari ma’lum bir joyda yashovchi odamlarga ta’rif berishda, tabiat hodisalari orqali voqea-hodisani ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolda ifodalangan ma’noni anglashda bunday xususiyatlarga e’tibor qaratilishi lozim, albatta.

Xulosa qilib aytganda, «Devonu lug‘atit turk» da keltirilgan maqollar real va noreal mazmunga ega bo‘lib, voqea-hodisalarni oddiy, ramziy hamda obrazli qilib ifodalaydi. Shuningdek, «Devon» dagi maqollar orasida belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlar vositasida haqiqiy hayotni ifodalab beradi. Ayniqsa, ranglarning o‘ziga xos ramziy ma’no ifodalashi diqqatni tortadi. O‘rin-joy nomlari bajargan o‘ziga xos semantik-stilistik xususiyatlar ham shular jumlasidandir.

Rezyume. Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan maqollarning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning semantik, stilistik xususiyatlari tahlil qilingan.

Resume. This article analyzes the role of proverbs in linguistics, their semantic and stylistic features, cited in Mahmud Kashgari’s work «Dīwān Lughāt al-Turk».

Резюме. В данной статье анализируется роль пословиц, приведенных в произведении Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк» в лингвистике, их семантические и стилистические особенности.